SIMMIT xalqaro tashkiloti ro’yxatiga kiritilgan bug’doy navi

O’zR FA Genetika va o’simliklar eksperimental biologiyasi instituti tomonidan sariq va qo’ng’ir zang kasalliklariga chidamli, hosildorligi o’rtacha, non bo’lish sifati yuqori bo’lgan “Bardosh” bug’doy navi yaratilgan. Ushbu nav biologik fakultativ tipga mansub, qiltanoqli, bo’yi 85-90 sm, vegetatsiya davri 1 yanvardan hisoblanganda 120 kunga teng, Krasnodar navlariga nisbatan 10 kunga tez pishadi. Ekish muddati oktabr oyining ikkinchi yarmida, ekish me'yori gektariga 180-200 kg. Urug’ kimyoviy ishlov berishni talab qiladi. Ekishdan oldin gektariga 150-200 klogramdan fosforli o’g’it berish yaxshi natija beradi. Navning fakultativ tipga mansubligini e’tiborga olib, azotli o’g’itlarni kuzda berish yoki erta muddatlarda ekish tavsiya etilmaydi. O’g’itga talabchanligi o’rtacha, suvni ko’p talab qilmaydi, vegetatsiya davrida 2-3 marta yengil sug’orish yetarli bo’ladi.



“Bardosh” bug’doy navi 2013-yildan istiqbolli nav sifatida Davlat reestriga kiritilgan. Bu nav SIMMIT xalqaro tashkiloti tomonidan sariq va qo’ng’ir zang kasalliklariga chidamli nav sifatida tan olingan.